XALQ DEPUTATLARI ANDIJON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 10-fevral VII-4-16-1-16-K/25 Andijon tumani

Andijon tuman hududida Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi va Suv resurslaridan foydalanganlik uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni tasdiqlash to'g'risida

O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig`ini yanada takomillashtirish to`g`risida"gi PF-6121-farmonining 4-bandiga muvofiq tuman moliya bo`limi va soliq inspeksiyasining "Yer qaridan foydalanganlik uchun va suv solig`i bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar" loyihasi bo`yicha kiritgan takliflari muhokama qilinib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig`ini yanada takomillashtirish to`g`risida"gi PF-6121-farmonining 4-bandiga muvofiq tuman moliya bo`limi va soliq inspeksiyasining "Yer qaridan foydalanganlik uchun" va "Suv solig`i" bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar" loyihasi ma`lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqning amaldagi soliq stavkalari 1,10 barabariga va suv solig`ining amaldagi soliq stavkalari 1,00 barabarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi ko`zda tutilganligi;

Kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar qo`llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo`yicha tavsiyalari ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. “Yer qaridan foydalanganlik uchun” va “Suv solig`i” solig`i stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar” miqdorlarini belgilash bo`yicha tuman iqtisodiyot va moliya bo`limining hamda tuman soliq inspeksiyasining taklifi maqullansin.

4.Mazkur qaror bilan:

Andijon tuman hududida Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

Andijon tuman hududida “Suv solig`i” stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Soliq idoralariga “Yer qaridan foydalanganlik uchun” va “Suv solig`i” summasi 2024- yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 barabaridan oshmasligi

lozimligi;

Xalq deputatlari tuman Kengashiga xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonida belgilangan “Yer qaridan foydalanganlik uchun” va “Suv solig`i” ularning hududlarida joylashgan massiv, mahalla, ko`cha kesimida 1,00 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko`rsatib o`tilsin.

5.Xalq deputatlari tuman Kengashi bir hafta muddatda ushbu qarorning 1-2 ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarida joylashgan massiv, mahalla kesimida 1,00 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni qo`llash bo`yicha muhokamalar o`tkazib, 2025-yilning11-yanvariga qadar muhokamalar yakuni bo`yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini joylardagi soliq organiga taqdim etish tavsiya etilsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi ushbu qarorning ilovasiga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni kelgusi yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqiqan holda qo`llashlari tavsiya etilsin.

7. Andijon tuman soliq inspeksiyasi (D.Ahmadaliyev) yer solig`i bo`yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 2025- yilning 20-yanvarga qadar barcha soliq to`lovchilarning shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta`minlasin.

8. Tuman soliq inspeksiyasi (D.Ahmadaliyev) hududiy soliq organlari bilan birgalikda:

O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to`liq va to`g`ri hisoblanishini hamda o`z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko`paytirish bo`yicha qo`shimcha zahiralarni aniqlash;

yer solig`ining soliq bazasini oshirish, ya`ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo`yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o`rinbosari (I.Muqimjonov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  YULDASHEV BOBIRBEK BAXODIROVICH

Xalq deputatlari Andijon tumani Kengashining
2025-yil 10-fevraldagi
VII-4-16-1-16-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2025 yil uchun “Yer qaridan foydanilganlik uchun soliq” stavkasi

№	Hududlar nomi	Er qaridan foydalanganlik uchun soliq (so'mda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin		Tabiiy bezaktoshdan bloklar		Marmar		Granitlar		Gips toshi, gips va angidrid, ganch		G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar		"Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar"	
		Koeff.	Savka	Koeff.	Savka	Koeff.	Savka	Koeff.	Savka	Koeff.	Savka	Koeff.	Savka	Koeff.	Savka
1	Andijon tumani	1.3	8,008	1.3	13,000	1.3	26,000	1.3	39,000	1.3	20,735	1.3	6,006	1.3	6,500

** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 452-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsient belgilashga haqli*

Xalq deputatlari Andijon tumani Kengashining
2025-yil 10-fevraldagi
VII-4-16-1-16-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

№	Hududlar nomi	SUV solig‘i stavkasi (so‘mda)															
		Yer usti								Yer osti							
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Koeff.	Savka	Koeff	Savka	Koeff.	Savka	Koeff	Savka	Koeff	Savka	Koeff.	Savka	Koeff.	Savka	Koeff	Savka
1	Andijon tumani	1.2	840	1.2	840	1.2	90,000	1.2	45,600	1.2	1,020	1.2	1,020	1.2	18,000	1.2	45,600

** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari soliq stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsient belgilashga haqli*